



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI O'QITISH: ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR VA XALQARO TAJRIBALAR

Qanoatova Nazokat Sotvoldi qizi

University of economics and pedagogy "NOTM Maktabgacha va  
boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchsi

Bekmirzayeva Ruxshona Ravshanbek qizi

University of Economics and pedagogy NOTM Boshlang'ich ta'lim I-  
bosqich talabasi

Toxirova Maryamxon Muxammadin qizi

University of Economics and pedagogy NOTM

Boshlang'ich ta'lim I-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15481048>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2025 yil

Ma'qullandi: 15-May 2025 yil

Nashr qilindi: 21-May 2025 yil

### KEYWORDS

sifat, mustaqil so'zlar,  
grammatik bilim, klasster,  
rolga kirish, asoslash, metod,  
ta'lim ustuvorligi, boshlang'ich  
sinf, dramatisatsiya, ijodkorlik.

### ABSTRACT

*Boshlang'ich ta'lim — bola tafakkuri shakllanadigan, bilimga qiziqish uyg'onadigan muhim bosqich. Ayniqsa, ona tili darslarida so'z turkumlarini, jumladan sifatni o'rgatish o'quvchining ta'rif berish uchun so'z boyligini, kuzatuvchanligini, narsa va buyumlarga ijobiy yoki salbiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Sifat — narsaning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlaridan biriga javob bo'lib keluvchi mustaqil so'z turkumi bo'lib, o'quvchilarga uni turli metodlar yordamida tushuntirish orqali ularning tasavvurini kengaytirish mumkin*

Sifat — otga bog'lanib uning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlaridan biriga javob bo'lib keluvchi mustaqil so'z turkumi.

Sifatning ma'noviy guruhlari:

- 1.rang-tus : qizil, yashil, oq, sariq....
- 2.maza-tam : shirin, achchiq, nordon, bemaza.....
- 3.hajm-o'lchov : katta, kichik, uzun, og'ir, yengil.....
- 4.xil-xususiyat : aqlli, a'lochi, bilag'on, yaxshi, yomon....
- 5.makon-zamon : kuzgi, yozgi, qishgi, bahorgi....
- 6.hid : xushbo'y, badbo'y, noxush....

Bolaga sifatning ushbu turlari haqida ma'lumot berish lozim. O'zlaridan ham misollar keltirishi so'ralishi kerak. O'quvchilar o'zlari o'ylab misollar keltirganida xotirasida yaxshi mustahkamlanadi. Har bir keltirgan misollariga qanday savol berilishini ham aytib o'tish joiz. Chunki mustaqil so'zlarga savol berib qaysi so'z turkumi ekanini aniqlashi oson bo'ladi. Misol uchun :

Sifat	Savol
Shirin taom	qanday taom?
Qizil gul	qanday gul?
A'lochi qiz	qanday qiz?
Yozgi oromgoh	qaysi oromgoh?
Xushbo'y atir	qanaqa atir?

Buyuk pedagog K.D. Ushinskiy shunday degan edi:

*“Ta’lim faqat bilim berish emas, balki bolani fikrlashga o’rgatishdir.”*

Shu bois, zamonaviy metodlar orqali pedagoglar bolaga sifatni o’rgatishda bilim berish bilan birga, mustaqil fikrlashga, o’z fikrlarini aniq izohlay olishga o’rgatishi lozimdir. Quyida boshlang’ich sinflarda sifat so’z turkumini o’rgatishda qo’llanilishi mumkin bo’lgan uchta zamonaviy metod va ularning jahon amaliyoti bilan solishtiruvlari keltiriladi:

### **1. “Klasster” metodi (g’oyalar xaritasi orqali tahlil)**

Tavsifi: Bu metodda o’quvchilar markaziy tushuncha — “sifat” so’zini atroflicha izohlaydilar. Ular narsa nomidan kelib chiqib unga tegishli belgi (sifat)larni mustaqil aytadilar va doskaga klaster shaklida yoziladi. Bunda o’quvchida tasavvur va ijodkorlik kabi qobiliyatlarni namoyon qiladi.

Qo’llanishi:

O’qituvchi “olma” so’zini yozadi. O’quvchilar “qizil”, “shirin”, “yumaloq”, “pishgan” kabi sifatlarni aytishadi. Sinfni guruhga bo’lgan holda olib borilishi o’quvchilar uchun metodning qiziqarli bo’lishini taminlaydi.

Har bir sifat o’quvchilarning tajribasiga asoslangan holda muhokama qilinadi.

Jahon tajribasidan misol: AQShda “mind mapping” texnikasi sifat so’zlarini farqlashda keng qo’llanadi (*Tony Buzan modeli*).

Afzalligi:

O’quvchilar o’z fikrlarini erkin ifoda qilishadi.

So’z boyligi ortadi.

Sifatning vazifasi va ahamiyati tushunarli bo’ladi.

### **2. “Rolga kirish” metodi (dramatizatsiya orqali o’rganish)**

Tavsifi: Bu metodda o’quvchilar turli narsalar obraziga kirib, ular haqida boshqa o’quvchilarning ta’rif berishini so’rashadi. O’quvchilarning qobiliyatlari namoyon bo’ladigan metodlardan biridir. Bolaga sifatning salbiy va ijobiy turlari borligini tushuntirish oson kechadi.

Misol: Bir o’quvchi “kitob” bo’lib chiqadi. Sinfdoshlar uni: “qiziqarli”, “eski”, “yangi”, “qalin” kabi sifatlar bilan ifodalaydi.

Jahon tajribasi: Finlyandiyada “active learning” metodikasi orqali dramalashgan o’yinlar orqali til va so’z turkumlari o’rgatiladi. Ular bu usulni “creative expression” deb atashadi.

Afzalligi:

Ijodkorlik rivojlanadi.

O’quvchilar bir-biriga mulohaza bildiradi.

Bilimlar mustahkamlanadi.

### **3. “Tanla va asosla” metodi (kritik fikrlash asosida)**

Tavsifi: Bu usulda har xil hayvon sur’atlari o’quvchilarga ko’rsatiladi so’ng o’qituvchi tomonidan bir nechta sifatlar yozilgan kartichka beriladi va ulardan sur’atdagi hayvonga mosini tanlab, nima uchun tanlaganini asoslab berish so’raladi.

Misol: Rasmda ko’rsatilgan mushuk haqida: “yoqimli, kichkina, yumshoq” sifatlaridan birini tanlab, asoslash.

Jahon tajribasi: Singapur ta’limida “Justify your answer” deb ataluvchi metod orqali har bir tanlov asoslantiriladi — bu o’quvchilarning tanqidiy fikrlashini oshiradi.

Afzalligi:

Fikrlash va mantiqiy bog'liqlik kuchayadi.

Sifatlar mazmunan tushuniladi.

Darsga faol ishtirok ta'minlanadi.

**Xulosa.** Sifat so'z turkumini boshlang'ich sinflarda o'rgatish — faqat grammatik bilim emas, balki bolaning nutqiy, tafakkuriy va tasavvuriy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi jarayondir. Pedagog o'quvchilariga nafaqat sifat so'z turkumi balki, boshqa so'z turkumlarini ham o'rgatishda bolaning eng yaqin atrofidan yoki o'zidan misollar keltirish orqali o'rgatilganda tushinishi va esda olib qolishi oson bo'ladi. Klasster, rolga kirish va tanlab asoslash metodlari orqali o'quvchilar bilimni nafaqat egallaydilar, balki uni hayotiy misollar bilan bog'lashga o'rganadilar. Tanqidiy fikrlash doirasi ham kengayadi. Eng asosiysi bolaga doimiy ishlatiladigan so'zlardan tashqari, ular uchun yangi, badiiy so'zlardan foydalanib dars o'tilishi o'quvchilarda so'z boyligi oshishiga yordam beradi.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy shunday degan:

*“Ta’lim va tarbiya berishda eng muhim vosita — yaxshi metoddir.”*

Demak, to'g'ri tanlangan metodik yondashuv bolani o'rgatish emas, balki uni fikrlatish vositasidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. “Ona tili fanidan metodik qo'llanma (1–4-sinflar)”, 2022-yil.
2. Erkaboyeva N. “Yosh kuch” nashriyoti, 2019
3. Vygotsky, L.S. “Thought and Language”. – MIT Press, 2012.
4. Buzan, Tony. “The Mind Map Book: Unlock your creativity”. – BBC Active, 2005.
5. OECD. “Teaching for the Future: Effective Classroom Practices”, Paris, 2019.
6. Finnish National Agency for Education. “Curriculum for Basic Education”, Helsinki, 2016.
7. Karimov N. ,Rustamova M. “Hozirgi o'zbek tili morfologiyasi”. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.